XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-100-216-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahrining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda Samarqand viloyati xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, 2024-yil uchun Samarqand shahar mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha Xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq, yuzinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan:

Samarqand shahar budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 155 315 353,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol maxsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 99 359 208,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

shahar budjetining aylanma kassa mablag‘i 3 806 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun shahar budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **5 197 516,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

5. Shahar hokimligi (Xabibullaev):

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarning rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatishi uchun shahar Kengashiga doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror 2024-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirsin.

7. Mazkur qaror “Samarqand” gazetasida e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Xabibullaev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-100-216-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

Samarqand shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	2024 yil
JAMI		**428 515 500,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	95 178 400,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	62 684 100,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	65 799 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	17 465 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	39 470 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	89 536 000,0
7	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	14 449 400,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	15 716 200,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining	15 848 400,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno)	3 030 000,0
11	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	1 261 000,0
12	Yig‘imlar	8 078 000,0

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-100-216-7-107-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Samarqand shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil
Samarqand shahar bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**583 830 853,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	61 297 507,0
2	Tibbiyot birlashmasi	238 573 709,0
3	Madaniyat bo‘limi	21 998 946,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	35 119 909,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	16 568 638,0
6	Hokimiyat	192 309 342,0
7	Soliq inspeksiyasi	13 594 695,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 906 857,0
9	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 461 250,0